



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASININ'
B U Y R I G' I**

29-Avgust 2023-jil.

№ 145

Nókis qalasi.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat aktivlari boshqarmasining
2023-yil 5-may kungi 70-sonli buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbiriari to‘g‘risida”gi PQ-102-son qarori va Agentlikning 2023-yil 30-mart kungi 62-sonli buyrug‘i ijrosini yuzasidan qabul qilingan Boshqarmaning 2023-yil 5-may kungi 70-sonli buyrug‘ini bekor qilish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi “Ma‘muriy islohatlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbiriari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmonining 7-ilovasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim hujjatlar ro‘yxati tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmonning 7-ilovasi 18-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-102-son qarorining 1-ilovasi 397-pozitsiyada ko‘rsatilgan “Arxitektura-rejalashtirish byurosi” DUK hamda 398-pozitsiyada ko‘rsatilgan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi” DM Qarorning 1-ilovasidan chiqarib tashlanishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoniga muvofiq, Boshqarmaning 2023-yil 5-may kungi 70-sonli buyrug‘i bekor qilinsin.

4. Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish sho‘basi (Qarlibayev), “Arxitektura-rejalashtirish byurosi” DUKning mulkiga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi 2023-yil 15-may kuni berilgan davlat orderi (0022169-son) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin va belgilangan tartibda yo‘q qilinishini ta‘minlasin.

5. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi v.v.b (G.Urazbayeva) mazkur buyruqning nusxasini Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish sho‘basi (Qarlibayev)ga yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig‘i



M.Radjabov